



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Burxonova Laylo Xurshid qizi, Kuvvatova Durdoni Akmal qizi

SamDUKattaqo'rg'on filiali 1-bosqich talabalari

Ilmiy rahbar: Madatov Ilhom Yusupovich

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV TA'LIMNING JORIY QILINISHI

ANNOTATSIYA: O'zbekiston Respublikasida ta'limning birinchi bosqichi hisoblanmish, maktabgacha ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan bo'lib kelmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, turli shakldagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini barpo etish, ularni yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan tarbiyachilar va mutaxassislar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, ta'lim tarbiya jarayoniga ilg'or xorijiy tajribani joriy etishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirishmoqda.

KALIT SO'ZLAR: Inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim muassasasi, psexalogik ta'lim, pedagogik jamoa.

Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta'lim tizimi yani inklyuziv ta'lim tizimining takomillashuvi va bu ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham joriy qilinganligi, inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qilinib, vazifalar yuklatilganligi haqida so'z boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29- dekabrda "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2707- sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrda "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi



maktabgacha ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 2019- yil 10- maydagi PQ -4212 /3106- sonli qarori maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda uslublarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, olib borilgan tahlillar, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini taminlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Bolalar haqida gapirganda albatta 2017-yil 7-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan bildirilgan quyidagi fikrlarni takidlash maqsadga muvofiq bo'ladi: " Ayni paytda farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining zamon talablariga mos kelmasligi ham sir emas. Ushbu sohaga bir paytlar e'tiborimizni susaytirib yuborganimiz oqibatida kopinga muammolar yig'ilib qolganini ochiq aytish lozim. Bog'cha tarbiyasini ko'rgan bolaning ongi, dunyoqarashi qanday yuqori bo'lishini bugun kimgadir isbotlab o'tirishning o'ylaymanki hech qanday hojati yo'q". Bu holatlarning barchasini hisobga olib, maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Mazkur vazirlik zimmasiga ma'muriy islohotlar doirasida belgilangan ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, bir qator muhim vazifalar yuklandi. Bu borada qabul qilingan dasturga muvofiq yaqin 3-4 yil mobaynida mamlakatimizdagi barcha hududlarida bu katta shaharlar bo'ladimi yoki olis qishloq va ovullar bo'ladimi, minglab yangi bog'chalarni qurulishimiz zarur. Ularni zamonaviy talablar asosida jihozlab, malakali tarbiyachi va mutaxassislar, yangi metodika bilan ta'minlash kerak.

Mamlakatimizda yosh avlodni sog'lom bilimli va zukko qilib tarbiyalash maqsadida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2017- yil 30 sentyabr da gi " Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi. Ayni kunda yangi vazirlik maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish Maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va moddiy texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalar qamrovini keskin oshirish ta'lim tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish orqali bolalarni intellektual, manaviy- estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash borasida tizimli ishlarni amalga oshirishga kirishdi.



Hozirgi har bir hudud bo'yicha 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni xatlovdan o'tkazib, ulatni yoshiga qarab guruhlarga ajratish, 5-6 yoshli bolalarni MTM dagi qisqa muddatli guruhlarga jalb tarbiyachining bilim salohiyatini tahlil qilish va o'rta maxsus ma'lumotli tarbiyachilarni oliy o'quv yurtlari qoshidagi sirtqi bo'limlarga o'qishga jalb etish, tarbiyachilar malakasini oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. Aytish joizki, Maktabgacha ta'lim muassasalarida malakali tibbiy xizmatni tashkil etish, sanitariya me'yorlari va gigiena qoidalariga to'la javob beradigan sog'lom ovqatlanish tartibini yo'lga qo'yish tizimdagi eng asosiy vazifalardan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga o'tishi ko'pincha uning hayotini, ahmoqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi.

Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasida yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatlariga doir bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishish kerak bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xolos bo'lishga yordam beradi. Bolaning maktabga tayyorgarligi undagi idrok, kuzatish, xotira, tafakkurning rivojlanishi, vaqt va fazoviy tushunchalar olami, ijtimoiy hodisalar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi bilan belgilanadi. Yuqoridagi bola rivojlanishiga qo'yilgan talablar davlat talablariga aks etgan. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari "Ishlab chiqilib, ushbu davlat talablarida bolaning quyidagi rivojlanish sohalari belgilangan:

- Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi ;
- Ijtimoiy- hissiy rivojlanishi;
- Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- Bilish jarayonlarini rivojlantirish;
- Ijodiy rivojlanish.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi "Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 528 sonli qarori asosida "Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari to'g'risida nizom", "Nodavlat Maktabgacha ta'lim muassasalari to'g'risida nizom", "Jismoniy yoki psexalogik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida nizom", "Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarning sog'lom va xavfsiz ovqatlanishini tashkil etish tartibi to'g'risida nizom"lar qabul qilingan.

Unga ko'ra, MTM maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish;
- Bolalarni ta'lim va tarbiya orqali maktabga sifatli tayyorlash;
- Bolalarni maktabgacha ta'limga jalb qilish.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasasiga 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi. (Avval bu ko'rsatkich 2-6 yoshni tashkil qilgan, alohida holatlarda 7 yoshgacha qatnashga ruxsat berilgan). O'zbekistonda maktabgacha ta'lim davlat tilida hamda qoraqalpoq, rus, tojik, qirg'iz, qozoq va turkman tillarida olib boriladi.



Inklyuziv ta'lim nogironlarning ijtimoiy tengdoshlari bilan bir qatorda ta'lim olishini ta'minlaydi, (agarda ularning rivojlanishida jiddiy sabablar bo'lmasa) muntazam maktablarga qabul qilinishini nazarda tutadi. O'ta murakkab nuqsonli bolalar ayrim hollarda mahsus maktablar va mahsus reabilitatsiya markazlari yoki muntazam maktablar qolshidagi mahsus sinflarda korriksion dasturlar yordamida ilm oladilar. Ushbu maktablarda ta'lim ta'minoti albatta bolaning zaruriyatini etiborga olgan holda amalga oshirish ko'zga tutiladi. Bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar bilan bog'liqdir. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, barcha sohalarda bo'lgani kabi bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimda ham chuqur islohotlar va o'zgarishlar sodir bo'ldi.

O'zbekiston huquqiy davlat sifatida rivojlanishi jarayonida Prezidentimizning har bir fuqaroning manfaatlarini himoya qilishda uning jinsi, irqi, millati, yoshidan qat'iy nazar qonun ustuvorligini ta'minlashni asosiy omil sifatida belgilaganlar.

Bugun yurtimizdagi har bir bolaga davlatimizning barcha huquqlardan to'liq foydalanadigan fuqarosi sifatida qaralishini takidlab o'tish lozim.

Inklyuziv ta'lim bu imkoniyati cheklangan bolalarni barcha zaruriy vositalar bilan ko'pchilik bolalar uchun amalga oshiruvchi ta'lim tadbirlarga jalb etishdir. Shundagina imkoniyati cheklangan bolalar jamiyat hayotida faol ishtirok etishga erishadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Internet sahifasi. <https://hozir.org>
2. Internet sahifasi. <https://cyberleninka.ru>
3. Shomaxmudova.R.Sh
"Inklyuziv ta'lim" (Xalqaro va O'zbekistondagi tajribalar)
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
www.uzbdu.uz
5. Ijtimoiy axborot ta'lim portali. www.ziyonet.uz